



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 15-avgust

404-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 19-iyuldagi PQ–274-son qarori ijrosi haqida” 366-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 19-iyuldagi PQ–274-son qarori ijrosi haqida” 366-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 19-iyuldagi PQ–274-son qarori ijrosi haqida” 366-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi PQ–274-son qarori bilan:

Quyidagilar voleybol, sohil voleyboli va para voleybol sport turlarini (keying o‘rinlarda - voleybol sport turlari) rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilanganligi:

voleybol sport turlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish hamda eng ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish;

iqtidorli sportchilar, shu jumladan, sportchi-ayollarni aniqlash, seleksiya qilish hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning barcha bosqichlarini raqamlashtirish;

zarur sharoitlarga ega professional va oliy ta‘lim tashkilotlarida voleybol sport turlari bo‘yicha to‘garaklarni tashkil etish;

voleybol sport turlari bo‘yicha professional trenerlar va hakamlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish; voleybol sport turlari bo‘yicha zamonaviy sport majmualarini barpo etish, mavjud moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta‘minlash;

quyidagilar:

2024 – 2026-yillarda voleybol sport turlarini rivojlantirish dasturi (keying o‘rinlarda - Dastur) 1-ilovaga muvofiq;

2024 – 2026-yillarda voleybol sport turlarini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari 2- ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilab qo‘yilishicha:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida voleybol sport turi bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi kubogi musobaqalarining final bosqichida g‘olib bo‘lgan ta’lim muassasalariga ularning haqiqiy ehtiyojidan kelib chiqib, zarur sport jihoz va anjomlari yetkazib berilishi;

g‘olib bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini ularning haqiqiy ehtiyojidan kelib chiqib, zarur sport jihoz va anjomlari bilan ta’minlash O‘zbekiston voleybol federatsiyasining mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi;

vazirlik va idoralar xodimlari o‘rtasida har yili o‘tkaziladigan “Yangi O‘zbekiston” respublika musobaqasining tuman (shahar) va hududiy bosqichlarini tashkil etish hamda o‘tkazish ushbu vazirlik va idoralar tomonidan O‘zbekiston voleybol federatsiyasi bilan kelishgan holda amalga oshirilishi;

O‘zbekiston voleybol federatsiyasining 2025-yildan boshlab har ikki yilda bir marta federatsiyaga yo‘naltiriladigan homiylik xayriyalari hisobidan voleybol bo‘yicha Markaziy Osiyo voleybol assotsiatsiyasi (CAVA)ga a‘zo davlatlar o‘rtasida “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro turnirini o‘tkazib borish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi;

Sport vazirligi, O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi, O‘zbekiston voleybol federatsiyasi va Namangan viloyati hokimligining Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatini amaldagi moliyalashtirish tartibini saqlab qolgan holda Voleybol sport turlariga ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internati (keyingi o‘rinlarda – maktabinternat) sifatida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi;

belgilanishicha:

maktab-internat faoliyati voleybol sport turlari bo‘yicha iqtidorli yosh sportchilarni saralab olish va ularni terma jamoalarga asosiy nomzod sifatida tayyorlashga yo‘naltirilishi;

maktab-internat 2024/2025-o‘quv yilidan faoliyatini boshlaydi hamda o‘z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyundagi “Sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 410-son qarorida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilishi;

maktab-internatning voleybol sport turlari bo‘yicha o‘quvchi-sportchilari soni maktab-internatning umumiy kontingenti doirasida Sport vazirligi tomonidan belgilanadi hamda mavjud sport inshootlari imkoniyatlaridan kelib chiqib qo‘shimcha ravishda chim ustida xokkey, gandbol, erkin kurash kabi sport turlari ham rivojlantirilishi;

2024/2025-o'quv yiliga qadar maktab-internatda mazkur bandda ko'zd atutilmagan boshqa sport turlari bo'yicha tahsil olayotgan o'quvchilar ushbu maktab-internatni to'liq tamomlagunga qadar o'qishini davom ettirilishi;

2025/2026-o'quv yilidan boshlab voleybol sport turi bo'yicha yuqori natijalarga erishgan 16 nafardan (8 nafar o'g'il, 8 nafar qiz) iqtidorli sportchi-o'quvchi Sport vazirligining tavsiyasiga asosan Ichki ishlar vazirligi akademik litseylariga tanlovning dastlabki va maxsus-professional bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng test sinovlarisiz umumiy kvota doirasida ichki ishlar vaziri tomonidan belgilangan tartibda o'qishga qabul qilinishi;

O'zbekiston voleybol federatsiyasiga sport zallari beg'araz birlashtiriladigan davlat ta'lim muassasalarining manzilli ro'yxati 3-ildan muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

hududiy professional voleybol klublari uchun bino va inshootlarni barpo etish Sport vazirligi bilan kelishilgan namunaviy loyiha asosida mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari va homiylik xayriyalari hisobidan amalga oshiriladi hamda ularga hududiy professional voleybol klublari tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilishi;

hududiy professional voleybol klublari iqtidorli yosh sportchilarni saralab (seleksiya) olishni hamda kelgusida ularni milliy terma jamoalarning asosiy va zaxira tarkibiga tayyorlab berishni amalga oshiradi, shuningdek, hududiy saralash musobaqalarini o'tkazib borilishi;

hududiy professional voleybol klublari mahalliy byudjet va homiylik xayriyalari hisobidan Xalqaro voleybol federatsiyasining talablari asosida ishlab chiqarilgan sport jihozlari va inventarlari bilan ta'minlanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan Sport boshqarmasi (A.To'ychiyev)ga Yoshlar ishlari boshqarmasi (B.Mirzatov), O'zbekiston Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi (I.Ikromov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov) shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

Ikki hafta muddatda hududiy professional voleybol klublari uchun bino va inshootlarni barpo etish hamda sport jihozlari va inventarlari bilan ta'minlash ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni ajratish bo'yicha tegishli xalq deputatlari Kengashlariga taklif kiritish;

har yili hududiy professional voleybol klublari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, sportchilarning hududiy, respublika va xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishi uchun hududiy sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasiga zarur mablag'larni yo'naltirish cho'ralarini korish;hududiy professional voleybol klublarini sport anjomlari va jihozlari bilan ta'minlash choralarini ko'rish vazifasi yuklatilganligi e'tiborga olinsin.

4.Sport maktablari (M.Abduqodirov) manfaatdor bo'lim, idora va tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi PQ-274-son qarorining 1-ilovasidagi "2024 – 2026-yillarda voleybol sport turlarini rivojlantirish dasturi"da nazarda tutilgan topshiriqlar o'z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov